



O'zbekiston Respublikasi Oliy va  
o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021  
yil 12 dekabr 2 dagi 543 -  
sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti**

**U S T A V I**

## I. Umumiy qoidalar

1. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-42-sonli qaroriga asosan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet deb ataladi) etib qayta nomlangan va gidroenergetika, irrigatsiya, melioratsiya, qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar, suv tejovchi sug'orish texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, geodeziya va geoinformatika, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tashkiliy tuzilmasiga kiradi.

2. Universitet yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet mablag'larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanib, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda o'quv rejalari va dasturlari doirasida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish faoliyati bilan shug'ullanadi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq o'quv-uslubiy, ilmiy-pedagogik, ilmiy tadqiqot va innovatsiya, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mustaqil amalga oshiradi.

3. Universitet o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining ta'limga oid qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Boshqaruv kengashinin qarorlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda mazkur Ustavga amal qiladi

4. Universitet operativ boshqaruvida o'ziga tegishli mol-mulkka ega va ushbu mol-mulk bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o'z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, sudlarda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Universitet mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligida shaxsiy g'azna hisob varaqalariga, bank muassasalarida maxsus, shu jumladan valyuta hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, shtamplar va boshqa rekvizitlarga ega.

Universitet internet tizimida o'zining rasmiy veb-saytiga ega

**E-mail:** admin@tiiame.uz

Universitet joylashgan manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy

Universitetning davlat, rus va ingliz tillaridagi rasmiy to'liq nomi:

davlat tili: kirill alifbosida: “Тошкент ирригация ва кишлок хўжалигини механизациялаш мухандислари институти” Миллий тадқиқот университети;

davlat tili: lotin alifbosida: “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti;

rus tilida: Национальный исследовательский университет “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства”;

ingliz tilida: “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers” National Research University.

## **II. Universitetning asosiy faoliyat yo‘nalishlari va vazifalari .**

5. Universitetning asosiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

gidroenergetika, irrigatsiya tizimlarini boshqarish, suv xo‘jaligi obyektlari qurilishi, kadastr va geoinformatika, “yashil iqtisodiyot”, “yashil energetika”, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, suv xo‘jaligida innovatsion resurstejamkor texnika va texnologiyalarni qo‘llash, geodeziya va geoinformatika, daryo va suv omborlari gidrologiyasi, agrar sohasida zamonaviy qishloq xo‘jaligi va meliorativ texnikasi, mashina va mexanizmlari, raqamli texnologiyalar tarmoqlari uchun oliy ma‘lumotli muhandis kadrlarni tayyorlash;

sug‘orish tizimlari samaradorligini oshirish, tejamkor sug‘orish texnologiyalarini yaratish, raqamli qishloq xo‘jaligi va geoaxborot tizimlari asosida erlarning meliorativ holatini baholashni yo‘lga qo‘yish hamda tuproq unumdorligini oshirishning takomillashgan usullarini ishlab chiqish;

zamonaviy o‘quv va ilmiy-laboratoriya bazasini shakllantirish, uni ilg‘or texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish va ularning transferi bo‘yicha samarali tizimni shakllantirish;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish, suv resurslarini hisobga olish va boshqarish tizimini takomillashtirish, gidrotexnika inshootlarini loyihalash, qurish va foydalanishni raqamlashtirish borasida ilmiy yechimlarni ishlab chiqish;

ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha uzluksiz ta‘lim tizimini yaratish;

yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan qo‘shma ta‘lim dasturlari va ilmiy loyihalarni joriy etish, Universitet professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish, bitiruvchilarning respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida (ilmiy markazlarda) magistratura va doktorantura dasturlari bo‘yicha tahsil olishlarini tashkil etish;

o‘quv jarayonini talabalarda mustaqil ta‘lim olish, tizimli tahlil qilish, ijodiy fikrlash va amaliy, jumladan tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish;

o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ta'lim va tadqiqotni uyg'unlashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlari uchun eng ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish;

tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Universitet 2022 yil 1 yanvardan o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tadi. O'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorida berilgan huquqlar, bilan bir qatorda, Universitet quyidagilarni ham mustaqil ravishda qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiradi:

Universitetga 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

a) akademik mustaqillik sohasida:

o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash;

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar tuzish va tarkibini tasdiqlash;

tegishli ixtisosliklarda ilmiy unvon va ilmiy darajalarni berish hamda respublikadagi boshqa oliy ta'lim muassasalari tomonidan berilgan ilmiy unvon va ilmiy darajalarni tan olish, shuningdek, doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar uchun ta'lim davomiyligi muddatlarini belgilash;

doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish;

magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, shuningdek, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar hamda kasbiy malakalar berish tizimini joriy qilish;

o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalar bilan ichki akademik mobillikni amalga oshirish;

Universitet va uning tasarrufidagi ta'lim muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;

ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida:

faoliyatining asosiy yo'nalishi ta'lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash;

xorijiy davlat fuqarolarini to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish va masofaviy ta'lim olish shaklida o'qitishni tashkil etish.



Ushbu bandeda nazarda tutilgan vakolatlar Universitet tomonidan mustaqil ravishda qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **III. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarning subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari**

#### **a) Talabalar:**

6. Talaba O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining bayoni bilan talabalikka tavsiya etiladi va Universitet rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi. Talabaga talabalik guvohnomasi (IDkarta) beriladi

Universitetga qonunchilikda belgilangan tartibda umumiy o'rta, o'rta maxsus (akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari) ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar arizalariga binoan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha qabul qilinadi.

Universitetga qabul barcha O'zbekiston fuqarolari uchun (ham davlat grantlari, ham to'lov-kontrakt, shu jumladan tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriendlarning davlat grantlari asosida birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriendlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan tartiblar doirasida qabul qilinish huquqiga ega. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz yoki test sinovlarida ishtirok etgan ayrim toifadagi fuqarolar muayyan imtiyoz asosida o'qishga qabul qilinadi.

Universitetga oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Universitetga xorijiy fuqarolarni qabul qilish suhbat asosida test sinovlarisiz amalga oshiriladi.

7. Universitetning talabalari quyidagi **huquqlarga** ega:

fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar yutuqlariga mos keluvchi bilimlar olish;

Universitet axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

bepul maslahatlar va tavsiyalar olish;

auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartibda bepul foydalanish;

ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim muassasasi, dekanat va kafedra rahbariyatiga bildirishga va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;

Universitet va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok

etish;

ilmiy tadqiqot ishlarida va ilmiy konferensiyalarda qatnashish va ularning natijalarini nashr etish va bu haqda axborotlar berish;

Universitet qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish;

o'qishdan tashqari vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va boshqa qonunchilikka zid bo'lmagan jamoat ishlarida ishtirok etish;

o'qishdan bo'sh vaqtlarida Universitetning o'zida, shuningdek, boshqa joylarda mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlash;

sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan sohasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib etish uchun zarur bo'lgan qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanish.

Talaba o'z huquqlarini suiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

8. Davlat grantlari bo'yicha va to'lov-kontrakt asosida o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi (kunduzgi) shaklida ta'lim olayotgan talabalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta'minlanadilar (xorijiy talabalar bundan mustasno).

Talabalar tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat stipendiyalari va Universitet ichki nomdor stipendiyalarini olish huquqiga egadirlar.

9. Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish uchun ta'tillari davrida hamda oilasining betob a'zosini (otasi, onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, turmush o'rtog'i, farzandi) parvarish qilish uchun talabaga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 iyundagi 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan tartib asosida akademik ta'til berilishi mumkin.

10. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga Universitetda o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni beriladi.

11. Universitetning Talabalar turar joyi sig'imidan kelib chiqqan holda muhtoj talabalar, universitet talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta'minlanadi. Talabalar turar joyi uchun to'lov talabalar turar joylarida kommunal-maishiy xizmatlar uchun to'lovlarni inobatga olib, Universitet kengashi tomonidan belgilanadi.

Turar joyga muhtoj talabalar mavjud bo'lgan holda, Universitetning talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarga foydalanish (ijaraga berish, boshqa kelishuvlar)ga ruxsat etilmaydi.

12. Universitetning talabalariga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

tegishli ta'lim yo'nalishi hamda mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv rejaları va dasturlarida nazarda tutilgan bilimlarni egallash va o'zlashtirish;

o'quv rejada nazarda tutilgan barcha turdagi topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish, shuningdek bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;

Universitetning Ustavi va ichki tartib qoidalariga rioya etish;

dars mashg'ulotlarini uzrli sabablarsiz qoldirmaslik, dars mashg'ulotlariga kechikib kelmaslik va uyali aloqa vositalaridan foydalanmaslik;

Universitetning rahbar xodimlari, professor-o'qituvchilari va ishchi xizmatchilariga nisbatan o'zaro hurmat hamda samimiy munosabatda bo'lish;

kiyinish madaniyatiga rioya qilish;

talabalarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o'qish vaqti hisobidan ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

13. Universitetdan o'z hohishi yoki uzrli sabablarga ko'ra chetlashtirilgan talaba, universitetga qayta o'qishga tiklanishi rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Universitetning talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishlarini ko'chirish (o'qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

Talabalar o'qishini bir oliy ta'lim muassasasidan boshqasiga ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

14. Talaba oliy ta'lim muassasasidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi va kursdan qoldirishi mumkin:

a) o'z hohishiga binoan;

b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;

d) o'quv intizomini va Universitetning ichki tartib qoidalari hamda odob-ahloq qoidalarini buzganligi uchun;

e) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli (kredit modul tizimida ta'lim olayotgan talabalar bundan mustasno);

f) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);

g) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

h) sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);

i) vafot etganligi sababli.

Belgilangan muddatlarda fanlarni o'zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo'lgan) talaba Universitet rektorining buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Universitet ma'muriyati tashabbusi bilan mazkur Ustavning 14-bandi "f" kichik bandiga ko'ra talabalarni o'qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan talabalar



uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, talaba mazkur Ustavning 14-bandi "d" kichik bandiga ko'ra chetlashtirilayotgan holda, ta'lim muassasasining Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan ham kelishilishi mumkin.

Talaba Universitetdan chetlashtirilganda, unga shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig'ma jildda saqlanadi.

Talaba kasal bo'lganligi o'zi yoki uning ota-onasi tomonidan yozma ariza bilan bevosita dekanatga, odatda, bir haftadan kechiktirilmasdan ma'lum qilinadi va tibbiy ma'lumotnoma aslini taqdim etadi.

***b) Tinglovchilar:***

15. Universitet huzurida Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash innovatsion markazida o'qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi. Tinglovchilarning maqomi ta'lim xizmatlarini olish qismi bo'yicha Universitetda ta'lim olayotgan talabaning maqomi bilan tenglashtiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi, tinglovchilarni o'qitish shartlari va huquqlari qonun hujjatlariga muvofiq tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

***d) Stajyor-tadqiqotchi, tayanch doktorant, doktorant, mustaqil izlanuvchi va mustaqil-tadqiqotchilar:***

16. Universitetning stajyor-tadqiqotchilari, tayanch doktorantlari, doktorantlari va mustaqil izlanuvchilari, muayyan ixtisoslik bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) va fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlayotgan shaxslar hisoblanadi.

17. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni tashkil etish stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)), doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) va mustaqil izlanuvchi sifatida davom ettirish amaldagi qonunchilikdagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

***e) Universitetning professor - o'qituvchilari tarkibi, o'quv-yordamchi va ma'muriy - xo'jalik xodimlari (personali).***

18. Universitetda professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik-texnika, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv-yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari kiradi.

Professor-o'qituvchilar tarkibiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi, assistent va o'qituvchi-stajyor lavozimlari kiradi.

19. Universitet professor-o'qituvchilari, xodimlari va xizmatchilarini, shuningdek ilmiy-pedagogik xodimlarni O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-4391-son qaroriga muvofiq Universitet prorektorlari rektor



tavsiyasiga asosan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri va idora rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, bunda:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi;

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor lavozimiga nomzod O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi;

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan kelishiladi.

Transformatsiya ofisi rahbari Boshqaruv kengashi raisi tomonidan tayinlanadi, mehnatga haq to'lash shartlari va miqdorlari bo'yicha Universitet prorektoriga tenglashtiriladi.

Fakultet dekani Universitet rektori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

20. Universitetning professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlari quyidagi **huquqlarga** ega:

belgilangan tartibda Universitet va fakultet Kengashlariga saylash va saylanish; Universitetning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

Universitetning axborot-resurs markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarning xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;

o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

Universitet ma'muriyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;

qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;

xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;

nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;

talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, fundamental, amaliy va innovatsiya loyihalari, xorijiy ilmiy loyihalar hamda xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;

darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, monografiya va ilmiy maqolalar yozish, ixtiro uchun patent, AKT uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olishlarini amalga oshirish;

tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy-tadqiqot ishlarining muhokamasida ishtirok etish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ilmiy ishlar natijalarini nashr etishga tavsiya berish;

ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish;

xorijiy yetakchi olimlar, ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishda ishtirok etish;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

21. Universitetning professor-o'qituvchilar tarkibi va ilmiy xodimlarining **majburiyatlari** quyidagilardan iborat:

ta'lim to'g'risidagi qonun, mehnat va ijro intizomi, Universitet Ustavi, Ichki tartib qoidalari hamda odob axloq kodeksiga qat'iy rioya qilish, o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o'qituvchilik sha'niga dog' tushirmaslik;

ish jarayonida muloqot qiladigan muassasa xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan xushfe'l munosabatda bo'lish;

ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:

a) o'quv yuklamalari hajmini, o'quv-uslubiy, ilmiy o'quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish;

b) ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma tayyorlash, o'quv adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish, ixtiro uchun patent, AKT uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;

d) ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish;

e) tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish, shu jumladan darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;

f) Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan kafedrada bajariladigan ilmiy mavzularda ishtirok etish;

g) o'z malakasini muntazam ravishda oshirish;

mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalariga rioya qilish;

Universitetning mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish;

ish beruvchiga bevosita o'zining aybi bilan yetkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;

Universitet jamoatchilik ishlarida qatnashish;

pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash;

zamonaviy sivilizatsiya va demokratiya sharoitida ta'lim oluvchilarning tanlagan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha yuksak kasbiy tayyorgarlikni, mehnatga bo'lgan qobiliyatni shakllantirish;

chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish asosida kamida bir yoki ikkita xorijiy tilni bilishi;

ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;

«Ustoz-shogird» tizimida ishtirok etib, o'ziga biriktirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;  
o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnatilgan bo'lish;  
kiyinish madaniyatiga rioya etish;  
universitetning tasdiqlangan ichki tartib qoidalariga so'zsiz rioya qilish;  
respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish;

Universitet, fakultet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish;

o'zi o'qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;

darslarni yuqori saviyada o'tish;

fan yo'nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;

har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar rejasi va nazoratlar jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlatish;

reyting tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;

talabalar bilimini xolisona baholash;

yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;

ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratini oshirish;

o'zining mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish korxonasi va muassasalarda mavjud muammolar haqida ma'lumot va tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ishlab chiqarish jarayonida mavjud muammolarning yechimiga oid tadqiqot mavzusiga ega bo'lishi;

olib borayotgan tadqiqot mavzusi asosida o'z yoki hammualliflikdagi ishlanma va texnologiyalarga ega bo'lishi;

mutaxassisligi bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida tegishli muddatlarda malaka oshirib borishi yoki stajirovkadan o'tishi;  
oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish.

22. Universitet professor-o'qituvchilari va xodimlarining chet el xizmat safarlari belgilangan tartibda amalga oshiriladi

23. Universitetning professor-o'qituvchilari va xodimlarining malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

24. Universitetning professor-o'qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etish taqiqlanadi.

25. Universitetning ma'muriy-xo'jalik, muxandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari Universitetning ichki tartib-qoidalari va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.



#### **IV. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlar**

26. Universitet o'rnatilgan tartibda tegishli yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim xamda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning hamda qo'shimcha ta'lim (kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)ning dasturlarini amalga oshiradi.

27. Universitet asosiy ta'lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat - ta'lim yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, o'qish muddati Universitetda 4 yildan ko'p bo'lmagan oliy ta'lim shakli bo'lib hisoblanadi.

Bakalavriat dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga asosan ta'lim yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura - yo'nalishning muayyan mutaxassisligi bo'yicha fundamental va amaliy bilimlar beruvchi, bakalavriat negizida, o'qish muddati ishlab chiqarish (amaliy) yo'nalishiga ixtisoslashgan dasturlar asosida kamida bir yil, ilmiy-pedagogik yo'nalishga ixtisoslashgan dasturlar asosida ikki yil bo'lgan akademik oliy ta'lim shaklidir.

Magistratura dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga asosan tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo'yicha "magistr" darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi. Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta'lim muassasalarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish huquqini beradi.

28. Institutda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi ta'lim) va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki va sirtqi ta'lim) olib boriladi.

29. Universitetda ta'lim jarayonini tashkil etish, universitet rektori tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalari, fan dasturlari, yillik kalendar o'quv jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yo'li bilan tashkil etish, ya'ni ta'lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yo'li bilan universitet talabalariga oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun zaruriy sharoitlarini yaratib berilishi lozim.

30. Universitetda o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma'ruza, maslahat, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, yakka mashg'ulot, nazorat ishi, kollokvium, master-klass, ekskursiya.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik (tanaffussiz qo'shma ma'ruza) akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o'zbek, rus, ingliz tillari hisoblanadi.

31. Universitetning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan davlat ta'lim standarti qo'llaniladi.

32. Universitetda o'quv yili ikki va uch semestrga bo'linadi va uning xar birida talabalarning o'zlashtirish nazorati shaklida olib boriladi.

O'zlashtiruvchi talabalarni kursdan kursga o'tkazish fakultet dekanining tavsiyasiga binoan rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli o'tkazish mumkin emas.

Universitetning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalari talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq tartibga solinadi, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom"ga asosan bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi bilan tugallanadi.

33. Universitetda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

**34. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son qarorlari asosida tashkil etiladi.

35. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim – doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi hisoblanadi.

36. Universitet huzurida Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi faoliyati amalga oshiriladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish innovatsion markazida o'qish natijalariga ko'ra o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan davlat namunasidagi sertifikat (diplom) beriladi.

37. Universitetda Kengash tomonidan tasdiqlangan mavzular, rejalar bo'yicha bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligi ta'minlangan holda talabalar, magistrantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar keng jalb etilib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar olib boriladi.

Ilmiy tadqiqotlar quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi:

fundamental, amaliy xamda innovatsion tadqiqotlarni bajarish uchun ajratiladigan davlat byudjet mablag'lari;

byudjetdan tashqari mablag'lar;

maxalliy byudjet mablag‘lari;  
ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;  
vazirliklar, muassasalar va idoralar, korxonalar, birlashmalar bilan shartnoma asosida bajarilgan ishlardan tushadigan mablag‘lar, shu jumladan, xorijiy tashkilotlar mablag‘lari;  
korxonalar va tashkilotlardan xomiylik asosida kelib tushgan pul mablag‘lari;  
qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan kelib tushgan pul mablag‘lari.

#### **V. Universitetning tarkibi**

38. Universitetning tarkibi boshqarmalar, bo‘limlar, markazlar, fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo‘linmalardan iborat bo‘ladi.

Universitetning tarkibiy tuzilmasi alohida belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-sonli qaroriga asosan Universitet huzurida yuridik shaxs maqomiga ega

Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti;

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti;

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti faoliyat yuritadi.

#### **VI. Universitetni boshqarish**

39. Universitetni boshqarish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va Universitetning Kengashi, Boshqaruv kengashi, Jamoatchilik kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg‘unligi tamoyili asosida amalga oshiriladi.

40. Universitetni bevosita boshqarish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-sonli qaroriga muvofiq Boshqaruv kengashi qarori bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rektor tomonidan amalga oshiriladi

Rektor Universitet faoliyatiga, shuningdek, Universitetning ichki tartib qoidalari, o‘dab axloq kodeksi hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to‘la mas‘uldir.

Rektor O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Universitet nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, Universitetning mol-mulkiga mas‘ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank muassasalarida universitetning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag‘lardan o‘rnatilgan tartibda foydalanish bo‘yicha farmoyishlar beradi.

Rektor universitetning vakolati doirasida:



Universitet faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda Universitetga yuklangan maqsad va vazifalarni bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi;

Bosh buxgalter va bosh auditorni O'zbekiston Respublikasi Boshqaruv kengshi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan holda Universitetning ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'ini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

yuridik xizmati xodimini tegishli adliya organi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi;

Universitet prorektorlar, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlarining muayyan vazifalari hamda mas'uliyatlarini belgilaydi;

Universitet xodimlari va xizmatchilarini, shuningdek ilmiy-pedagogik xodimlarni O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi;

Universitet tarkibiga kirgan tashkilot va bo'linmalarining vazifalarini belgilaydi va ular to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlaydi;

Universitet xodimlarining lavozim maoshlariga har oylik ustamalar va qo'shimchalarni o'rnatilgan tartibda belgilaydi (rektor va prorektorlar bundan mustasno);

Kasaba uyushma qo'mitasi yoki Universitetning boshqa vakolatli organi bilan kelishilgan holda Universitetning ichki tartib-qoidalarini tasdiqlaydi;

Universitetda Namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag'lar hamda ish haqi fondi, xodimlarning tasdiqlangan soni va lavozim maoshlari, tarif setkasi doirasida Universitet professor-o'qituvchilari tarkibi va shtat birligini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;

O'rnatilgan tartibda tegishli me'yoriy-xuquqiy hujjatlarga muvofiq fakultetlarni, kafedralarni tashkil etish, birlashtirish, ajratish va tugatish yuzasidan Universitet Kengashi qarorlarini buyruq bilan tasdiqlaydi.

Universitet rektoriga o'zi ishlayotgan universitetda boshqa tashkilotlarda haq to'lanadigan rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy-metodik rahbarlikdan tashqari) o'rindoshlik bo'yicha ishlashga ruxsat etilmaydi. Rektor o'z vazifalarini o'rindoshlik bo'yicha bajarishi mumkin emas.

41. "Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq Universitet faoliyatining asosiy masalalarini ko'rish uchun **Kengash tashkil etiladi.**

Kengash tarkibiga rektor, prorektorlar, fakultetlar dekanlari hamda mutaxassislar tayyorlovchi kafedralar mudirlari, shuningdek, talabalar va Universitet xodimlari kasaba uyushmasi kengashi vakillari hamda boshlang'ich YOshlar ittifoqi yetakchisi kiradi. Rektor Universitet kengashi raisi hisoblanadi. Professor-o'qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanadiganlar soni rektor buyrug'i bilan belgilanadi.

Universitet Kengashi universitetning umumiy rahbarligini amalga oshiradigan kollegial organ hisoblanadi. Universitet Kengashi a'zolarining soni Universitet xodimlari va talabalari soniga nisbatan belgilanadi.

Universitet Kengashining vakolati, uni saylash va faoliyat yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasining Kengashi to'g'risida Nizom"ga muvofiq belgilanadi.

42. Universitet faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha **Boshqaruv kengashi** tashkil etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda PQ-42-sonli qarori)

Boshqaruv kengashining asosiy vazifalari:

Universitetning moliyaviy yil uchun mo'ljallangan biznes-rejasi, uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini, daromad va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash hamda ularning ijrosini muhokama qilish;

Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy maktablarni rivojlantirish;

qishloq va suv xo'jaligi texnologiyalari yo'nalishida ta'lim, tadqiqot va ilmiy ishlanmalar transferi jarayonlarini rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalar bo'yicha buyurtmachilar bilan manfaatli hamkorlikni o'rnatish;

ilmiy mahsulotlarni tijoratlantirish, startap va akselerator faoliyatlarini yo'lga qo'yish;

ta'lim va tadqiqot jarayonlariga investitsiyalarni jalb etish, yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan samarali aloqalarni o'rnatish;

Boshqaruv kengashiga quyidagi vakolatlar berilgan:

iqtsodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish, shuningdek, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash;

o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilash;

Universitet va uning tasarrufidagi ta'lim tashkilotlari tuzilmalarini tasdiqlash;

Universitetning tashkiliy tuzilmasiga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan yangi lavozim va tarkibiy bo'linmalar hamda qo'shimcha shtat birliklarini joriy etish.

43. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qaroriga asosan Universitetda samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, O'zbekiston yoshlar ittifoqining Universitet faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda Jamoatchilik kengashi tashkil etiladi.

Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish;

Universitetga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo'yicha tavsiyalar berish;

talabalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;

Universitetdagi ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni Universitet Kengashi muhokamasiga kiritish;

Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash Yoshlar ittifoqining institutdagi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi tomonidan amalga oshiriladi.

44. Universitetda kasaba uyushma qo'mitasi va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi.

Talabalar va xodimlar manfaatlarini himoyalashni Universitet kasaba uyushmasi hamda ularning saylangan organlari amalga oshiradi.

45. Kasaba uyushmasining huquqlari va unga nisbatan Universitet ma'muriyatining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

Kasaba uyushmasining huquqlari:

Universitet professor-o'qituvchilari, xodimlari, talabalariga moddiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirishni tashkil etish;

muzokaralar olib borish, jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzish, ish beruvchiga institutda me'yoriy hujjatlar yuzasidan takliflar kiritish;

jamoa a'zolaridan kelgan shikoyat, arizalarni o'z vaqtida ko'rib chiqish;

Universitetni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishga doir masalalarni ko'rib chiqishda qatnashish;

mehnat nizolarini tartibga soluvchi organlarda Universitet xodimlari manfaatini himoya qilish va qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

Universitetning majburiyatlari:

xodimlarning vakolatli organi sifatida kasaba uyushma qo'mitasining faoliyatiga ko'maklashish;

xodimlar va talabalar manfaatlariga taalluqli bo'lgan qarorlarni qabul qilishdan oldin ularning vakillik organlari bilan maslahatlashish, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan xollarda esa, ularning roziligini olish;

kasaba uyushma qo'mitasining takliflarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va qabul qilingan qarorlar xususida asosli javob berish;

jamoa shartnomasini tuzishga, uning bajarilishi ustidan nazoratni yo'lga qo'yishga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida, boshqa qonunlarida, universitetni ta'sis hujjatlarida, jamoa kelishuv-larida hamda jamoa shartnomasida nazarda tutilgan boshqa masalalarga oid ma'lumotlarni Kasaba uyushma qo'mitasiga taqdim etib borish;

xodimlar va talabalar vakillik organlariga o'z vazifalarini bajarishlari uchun zarur sharoit yaratib berish;



xodimlarning vakillik organlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

46. Universitetda O'zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti, Xotin-qizlar maslahat kengashi va boshqa jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Amaldagi nizomlarga muvofiq, universitetda ilmiy va ixtiyoriy jamiyatlar, ilmiy-uslubiy, ilmiy-texnik kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashi tashkil etilishi mumkin.

47. Rektorat va Universitet Kengashi o'z faoliyatida oliy ta'lim muassasasi jamoatchilik tashkilotlarining tavsiyalarini ko'rib chiqadi va o'z faoliyatlarida ularni hisobga oladi.

48. Fakultet dekani o'z faoliyatida "Oliy ta'lim muassasasining fakulteti to'g'risidagi Nizom"ga amal qiladi.

"Oliy ta'lim muassasasining fakulteti to'g'risidagi nizom"ga muvofiq fakultetda fakultet Kengashi tashkil etiladi.

49. Kafedra faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan nizomga muvofiq tanlov asosida Universitet Kengashi tomonidan saylanadigan kafedra mudiri rahbarlik qiladi.

Kafedra mudirining vakolatlari va kafedra faoliyatining tartibi "Oliy ta'lim muassasasining kafedralari to'g'risida"gi Nizom asosida va xizmat majburiyatlari bilan belgilanadi.

## **VII. Moliya-xo'jalik faoliyati va moddiy-texnik bazasi**

50. Universitetga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish va foydalanish maqsadida davlat tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, universitetning pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek iste'mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan mulklar biriktirilgan.

Universitet O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladigan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan obyektlar qatoriga kiritilgan. Universitetga ajratilgan er uchastkalari muddatsiz bepul foydalanish uchun biriktirilgan.

51. Universitetga jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'a, hadya yoki vasiyat bo'yicha berilgan pul mablag'lari, mol-mulk va boshqa mulkiy obyektlarga, universitet faoliyatining samarasi hisoblangan intellektual va ijodiy mahsulotlarga, shuningdek o'z faoliyati orqali oladigan daromadlar va bu daromadlar hisobidan sotib olinadigan mulkiy obyektlarga egalik qilish huquqi berilgan.

52. Universitet mol-mulkni ijaraga oluvchi va mol-mulkni ijaraga beruvchi sifatida faoliyat ko'rsatish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 8 apreldagi 102-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Universitet o'ziga biriktirilgan ijaraga berilishi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan binolar, inshootlar va ularning qismlari, asbob-uskunalar, transport vositalari shaklidagi davlat mulki va boshqa mol-mulkni

Kengashning roziligi bilan tasarruf etish huquqisiz, belgilangan narxlar bo'yicha ijaraga berishni amalga oshiradi.

Ijara haqi sifatida olingan mablag'larning tegishli qismi ta'lim jarayonini rivojlantirish uchun foydalaniladi.

53. Universitetning ta'lim faoliyatini moliyaviy ta'minlash davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan byudjet mablag'lari, davlat tomonidan belgilangan me'yorlaridan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash va xodimlarning malakasini oshirish hisobiga ajratilgan mablag'lar, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar, jumladan talabalar va tinglovchilarni o'qitish uchun belgilangan tartibda olingan to'lov-shartnoma asosidagi mablag'lar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

54. Universitetning asosiy faoliyatidan chetlanmagan tartibda ta'lim va boshqa sohalarda pullik xizmat faoliyatini amalga oshirish mumkin. Universitetda shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak. Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishdan tushadigan daromadlar Universitet ixtisosligi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar tarkibiga kiradi.

Universitet pullik ta'lim xizmatlari, konsultatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxlarni belgilash, soliq va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy to'lovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Universitet O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda mazkur Ustavga zid bo'lmagan shartnomalarni tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

55. Universitetda lavozim maoshlari "Oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida"gi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilanadi. Universitet xodimiga lavozim maoshi, o'z funksional vazifalarni hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lanadi. Qo'shimcha maosh, ustama, moddiy yordam va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmini universitet mustaqil, ish haqi fondi doirasida qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va hajmda belgilaydi.

56. Universitetda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'lgan xonalarni ajratadi. Universitetda joylashgan tibbiyot tayanch maskani hamda talabalar, tinglovchilar va xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi oshxona, bufetlar va boshqa umumiy ovqatlanish muassasalariga isitish, yoritish va suv ta'minoti bilan ta'minlangan xonalar ajratiladi.

Universitetning tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

57. Universitet o'z faoliyatini rivojlantirish jamg'armasiga ega.

Universitet faoliyatini rivojlantirish jamg'armasi:

irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini tuziladigan shartnomalar asosida ilmiy-texnik jihatdan ta'minlash uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larning 5 foizigacha bo'lgan qismi;

iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha o'zaro kelishuv asosida ta'lim, kadrlar tayyorlash, tadqiqot va texnologiyalar transferini rivojlantirish komponentlari mablag'lari;

xorijiy investorlar bilan investitsiya kelishuvlarida nazarda tutilgan ilmiy tadqiqotlar, kadrlar tayyorlash va loyihalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar;

kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, qishloq, suv xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda jalb etiladigan donor tashkilotlarning grant mablag'lari;

Yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga shakllanadi.

Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibini belgilash vakolati Boshqaruv kengashiga berilgan.

Universitet faoliyatini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari:

Universitetning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tadbirlariga hamda Boshqaruv kengashi tasdiqlagan Universitet Nizomida belgilangan boshqa maqsadlarga sarflanadi.

### **VIII. Xalqaro hamkorlik**

58. Universitet O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017 yil 25 maydagi "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3003 qarorlari hamda ushbu Ustavga muvofiq xorijiy mamlakatlarning ta'lim va ilmiy markazlari, xalqaro jamg'armalar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish huquqiga ega.

Chet el fuqarolarini o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik xodimlarining O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'qituvchilik va ilmiy-tadqiqotchilik ishlari davlatlararo organining xorijiy davlatlarning ta'limni boshqarish bo'yicha tegishli organlari orasidagi shartnomalar, shuningdek universitetning qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

59. Xalqaro faoliyatni amalga oshirishda Universitet quyidagi huquqlarga ega:

xorijiy davlatlarning ta'lim va ilmiy markazlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish yuzasidan shartnomalar (bitimlar, memorandumlar) tuzish;



xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni dars mashg'ulotlariga, hamkorlikda o'quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga jalb etish;

xorijiy hamkorlar ishtirokida Universitetning tarkibiy bo'linmalari (qo'shma fakultetlar, qo'shma ta'lim dasturlari, markazlar va boshqa bo'linmalar)ni qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda tashkil etish;

Universitet professor-o'qituvchilari, xodimlari, doktorantlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, PhD va magistratura dasturlari bo'yicha ta'lim olishlarini ta'minlash;

Universitet va xorijiy davlat oliy o'quv yurtlari talabalari, tayanch doktorantlari va doktorantlar, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlari bilan ikki tomonlama o'zaro almashuv dasturlarini tashkil etish;

xorijiy fuqarolarni belgilangan tartibda Universitetga o'qishga qabul qilish va ularning o'qishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Universitet qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlar bilan boshqa yo'nalishlarda ham o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish huquqiga ega.

60. Universitetning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlari qonunchilikka binoan mazkur Ustavda belgilangan faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi.

## **IX. Yakuniy qoidalar**

61. Universitet O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagilarga javob beradi:

- uning vakolatiga kiritilgan vazifalarni bajarmaganligi yoki yetarli darajada va sifatsiz bajarganligi;

- ta'lim jarayonida o'quv reja va jadvallarga muvofiq ta'lim dasturlari hajmini to'liq bajarmaganligiga;

- ta'lim jarayoni vaqtida universitetda talabalar, tinglovchilar, doktorantlar, professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarining hayot xavfsizligiga;

- ta'lim oluvchilar va Universitet xodimlarining huquq va erkinliklarning buzilganligiga;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa xatti-harakatlarga.

62. Universitet O'zbekiston Respublikasi amaldagi qarorlariga muvofiq belgilangan tartibda qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

63. Mazkur Ustav Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i bilan tasdiqlangandan so'ng, o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi va kuchga kiritiladi.

Ushbu Ustavga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'iga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.